



## KO`ZI OJIZ BOLANI O`QITISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

Dangalov Sunnatilla Mustafayevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasи o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ko`zi ojiz bolaning pedagogik-psixologik tavsifi, oilasi u bilan to`g`ri munosabat qilish yo`llari haqida yozilgan. Ushbu maqolada ko`zi ojiz bolani o`qitishda ahamiyat beriladigan jihatlari alohida ta`kidlab o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** ko`zi ojiz bola, psixologik ta`sir, pedagogik tavsif, tiflopedagog, ko`rish analizatori, ko`rvu o`tkirligi.

Oilada ko`zi ojiz bola tug`ilsa, unga nisbatan yumshoq munosabatda bo`lib haddan tashqari g`amxorlik qilinadi.

Oilada nogiron bola tug`ilishi nafaqat oilaning, balki nogiron bolaning o`zining ham baxtsizligidir. Bunday bolalarga mehr, sevgi parvarish bilan qaraganda ko`zi ojiz bolalar o`zlarini kamchiligini yanada ortiqroq sezadilar. Oqibatda ular o`zlari mustaqil qila olishlari mumkin bo`lgan yumushlarni ham o`zgalar ko`magi bilan bajarishga o`rganib qoladi. Oxir-oqibat kelajakda mustaqil harakatlana olmaslididan qattiq ranjishadi. Shuni aytish kerakki, ko`zi ojiz bolaga oilada ham, mакtabda ham nogiron deb qaramaslik, uni asrab-avaylamaslik kerak, shundagina u o`zi mustaqil harakatlanadi.

Albatta, nogiron bolaning alohida tarbiya olishini inkor etmaymiz. Balki, biz shuni ta`kidlaymizki, ko`zi ojizlarni o`qitishda maxsus pedagogik usul, alohida metod va metodologiyadan foydalanish kerak.

Faqat oliy ma'lumotli tiflopedagoggina ko`zi ojiz bolalar bilan samarali ishlay olishi mumkin. Shuni alohida e`tirof etish kerakki, biz avvalambor bolani, so`ng esa ko`zi ojiz bolani tarbiyalaymiz.

Ko`zi ojiz bolani biz nogiron deb hisoblamasligimiz kerak. Chunki u ijtimoiy hayotda o`qiydi, o`rganadi hamda jamiyatning ma`lum bir qatlamida ishlay olish qobiliyatiga ega bo`ladi. Qolaversa, ularning ko`rish sezgilari o`rnini his qilish, idrok qilish kabi jihatlar chuqur egallaydi.

Biz pedagoglar va psixologlar shuni unutmasligimiz kerakki, ko`zi ojiz bolani atrof-muhitda harakatlantirish ko`nikmasini shakllantirishimiz hamda atrof-muhitdagи voqe-hodisalar o`rtasidagi bog`liqlikni tushuntirishimizda kichik yoshdagи ko`zi ojizga katta yoshdagи ko`zi ojizni yoki tengdosh ko`zi ojizlarni yetaklovchi qilib qo`ymasligimiz kerak. Chunki yuqoridagi hodisalarни ko`zi ojiz ko`zi ojizga noto`g`ri tushuntirishi mumkin. Bunday hollarda ko`zi ojizni sog`lom kishi yetaklamog`i maqsadga muvofiq.

Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, ko`zi ojizlarning psixologik tasnifi o`ta murakkab va xilma-xildir. Ayniqsa, kichik yoshdagи ko`zi ojizlar psixologiyasi juda kam tadqiq qilingan.



Ko`ruv o`tkirligining darajasiga qarab hamda ruhiy rivojlanishiga ko`ra ko`zi ojiz o`quvchilar turlicha pedagogik va psixologik jihatlarni o`zida namoyon qiladi.

Ko`rishda nuqsoni bo`lgan bolalar ko`ruv o`tkirligiga ko`ra 2 turga bo`linadi:

1. Total ko`zi ojizlar (mutlaqo ko`rmaydiganlar) – ko`rish o`tkirligi 0;
2. Zaif ko`ruvchilar – ko`rish o`tkirligi 0,05 gacha.

Zaif ko`ruvchilar ko`rish o`tkirligiga ko`ra quyidagicha guruhanadi:

1. Ko`ruv o`tkirligi 0,05 dan 0,1 gacha
2. Ko`ruv o`tkirligi 0,1dan 0,2 gacha
3. Ko`ruv o`tkirligi 0,2 dan yuqori 0,4 gacha

Ko`ruv o`tkirligi - ko`zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayrim-ayrim ko`ra olish layoqatidir. Ko`ruv maydoni esa bu odam ko`zlari bilan boshni qimirlatmay turganida ko`ra oladigan maydondir.

Ko`ruv jarayonining buzilishi tug`ma va keyinchalik paydo bo`lishi mumkin. Tug`ma ko`zi ojizlikka sabab bo`luvchi omillar homilaning ona qornidagi vaqtida bo`lgan kasalliklar va shikastlanish oqibatida paydo bo`lishi mumkin, aksariyat hollarda esa ko`zi ojizlik nasldan-naslga irsiy o`tadi. Ushbu nasliy kasallik bilan og`rigan ko`zi ojiz bolalar “Nurli maskan” maktab-internatlarining 30 - 35 % ini tashkil qilmoqda. Odatda keyinchalik paydo bo`lgan ko`zi ojizligi ko`ruv organlarining kasallanishi oqibatida - to`r parda, shox parda markaziy nerv sistemasining kasalliklari (meningit, miyadagi shish, meningoensefalit), organizmning umumiylashtirish oqibatida (qizamiq, gripp), miyaning travmatik shikastlanishi natijasida paydo bo`lishi mumkin. Ko`ruv analizatorining buzilishlari rivojlanuvchi va turg`un turlari mavjud. Ko`rish nuqsoni ayniqsa, mustaqil harakatlanish, narsa-buyumlarni ko`rish orqali idrok qilish faoliyatlariga kuchli salbiy ta`sir etadi. Ko`rishida nuqsoni bo`lgan bolalarning atrof-muhitda kam harakat qilishi, siljishining chegaralanganligi ham ular ruhiyatining rivojiga salbiy ta`sir etmasdan qolmaydi. Ko`zi ojiz bolalar faolligining sustligi, kamligi ayniqsa, ilk rivojlanish va maktabgacha ta`lim davrlarida yaqqol ko`zga tashlanadi. L.I.Solntsevaning ta`kidlashicha, me`yordagi bolaga nisbatan ko`zi ojiz bola rivoji umumiylashtirish orqada qolish bilan farqlanadi. Bu ko`zi ojiz bolalarning mutlaqo ko`rmasligi yoki zaif ko`rishi bilan xarakterlanadi. Boshlang`ich sinfdagi bolalarda ham faollilikning pasayganligini ko`rish mumkin. Ko`zi ojiz bolalar faoliyatini ta`kidlar ekan B.I.Kovalenko va N.B Kovalenkolar ko`zi ojizligi va uning asoratlari faollikni pasaytiradi, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olishga to'sqinlik qiladi. Bu kamchiliklar ayniqsa, tug`ma ko`zi ojizlarda, ilk yoshda ko`zi ojiz bo`lganlarda, hamda qisman ko`rmaydigan bolalarda uchraydi deb ko`rsatadilar. Bunday nuqsonlarga qaramay, ko`zi ojiz bolalarga muntazam ta`lim va tarbiya berish, ularni hayotga tayyorlash uchun kamida 7 xil korreksion mashg`ulotlarni olib borish, bunday bolalarning rivojlanishidagi ortda qolish o`rnini deyarli bartaraf qilishi mumkin. Agar bola tug'ilganidan to` maktab ostonasiga qadam qo`ygunga qadar ularning ota-onalari boshlang`ich korreksion ishlarni olib bormasa, mo`ljal ola bilish refleksining salbiy natijalari o`z navbatida atrofni sezishga bo`lgan intilishning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. «Idrok qilishga xohish» pasayadi. Buning oqibatida, tabiiy ravishda atrofni bilish ham pasayadi. Shunday qilib, faollilikning pasayishi, bilishga bo`lgan intilishlarning rivojlanmasligi natijasida bilish faoliyati ham bir



butunligicha, to`laqonli rivojlanmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bunday kamchiliklarning barchasi mакtab va ota-onam hamkorligida bartaraf etilishi mumkin. Shuning uchun ham "Nurli maskan" mакtab-internatlarida tayyorlov sinflari tashkil etilgan bo`lib, unda yuqori malakali tiflopedagoglar bolalarni savodga o`rgatish bilan birgalikda nusqonlarini korreksiyalaydi.

I.M.Sechenov davridan buyon psixologik adabiyotlarda bayon etilishicha. ko'rish va sezish tasavvurlari o'xshash bo`lib, ko'z va qo'l predmetlarning bir xil xususiyatlarini ochib berar ekan. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, «Ko'rish predmetlarni to`la idrok etishga imkon beradi».

Ta'kidlab o'tish joizki, inson atrof-muhitni bilishda asosiy analizator ham ko'zdir. Biz ko'rishda nuqsoni bo`lgan bolalarning pedagogik jarayon uchun asos bo`ladigan analizatorlarning yetakchi tizimi nuqtai nazaridan guruhlanishini ko'rib chiqamiz. Oftalmologik nuqtai nazardan «0» vizusli va yorug'likni his qiladigan, shuningdek, korreksiya bilan yaxshi ko'radigan ko'zida 0.04 qoldiqli ko'rish o'tkirligiga ega bolalar Brayl tizimi bo'yicha paypaslash asosida bo`rtma nuqtali kitoblar hamda relefli chizmalarni idrok etishga mo`ljallangan darsliklar bo'yicha o`qishadi. 0.05 dan 0.4 gacha vizusli bolalar esa ko'rish idroki asosida, 18 shrift kattaligidan kam bo`lmagan kitoblar yordamida o`qitiladi. Zaif ko'rvuchi bolalarning o'qish-yozish jarayonida qog'oz sifati yuqori bo'lishi katta ahamiyatga ega. Ya'ni qog'oz tiniq oq rangda bo'lmasligi va nur qaytarmasligi kerak. 1-sinfda husnixat yozishga mo`ljallangan daftarlar chiziqlari oralig'idagi masofa 1, 2-sinfda 0,6, yozuv daftarlari chiziqlarining oralig'i esa ayni davrda 1,5, 1,2 sm bo'lishi talab etiladi. 3-sinfdan boshlab foydalaniladigan katta chiziqli daftarlarda oraliq 1sm bo'lgani ma'qul. Bu sinfdagi o'quvchilar qora siyohli ruchkadan foydalanishlari shart. Ularga yotiқ tarzda bitilgan yozuvlarni o'qish tavsiya etilmaydi. Yozuv taxtasining chiziqlar oralig'i 9 sm, matematikaga moslangan taxtalardagi kataklarning tomonlari esa 8,5 sm dan bo'ladi. Matematik mashqlarga mo`ljallangan daftarlarning kataklari odatdagidan kattaroq bo'lishi lozim. Shuningdek, kitoblardagi yozuvlar to'q qora rangda berilishi maqsadga muvofiqdир. Zaif ko'rvuchi o'quvchilar 15 sm uzoqlikdan 16 shrift kattaligidagi yozuvlarni erkin o'qiy olishlari kerak. Ular foydalanadigan rasm yoki qo'llanmalar 25 – 33 sm masofadan aniq ko'rinish turishi zarur. Maxsus mакtab-internatlarning sinf xonalari 500 – 700, yozuv taxtasi 150 – 300, dam olish xonasi 200, yotoqxona va yuvinish xonasi 75, zinalar va yo'laklar 50 lyuks miqdoridagi yorug'lik darajasiga ega bo`lmog'i darkor. Yuqoridagilardan xulosa shuki, zaif ko'rvuchi bolalar sinflarida zarur sharoitlarni ta'minlash, ularning moddiy-texnik ba'zasini boyitish, darsliklar va o'quv qurollarini ayni toifa bolalarga moslashtirish bugunning dolzarb masalalaridandir.

Bolalarning ko'zi ojiz bo`lib tug'ilganligi yoki erta bolalik davrida ko'rish qobiliyatini qisman yoki butunlay yo'qolganligi ularni savodga o`rgatishda turlicha metodlar qo'llash uchun muhim ahamiyatga ega. Ular biroz turli ehtiyojlarni sezadi, turli to'siqlarga duch keladi. Maxsus va to'g'ri tanlangan o'qitish metodikasi qo'llanmasligi natijasida ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi, bular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- sensor apparatlarning to'liq shakllanmaganligi;
- tasavvur va tushunchalar borasidagi kamchiliklar;



- fikrlashdagi kamchiliklar;
- nutq rivojlanishdagi kamchiliklar;
- harakatdagi kamchiliklar va boshqalar.

Har qanday bilish dastlab oddiy sezgilardan boshlanar ekan. Ko`zi ojiz bolalarni savodga o`rgatish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, mayda qo`l motorikasini rivojlantirish, kichik va katta fazoda mo`ljal olish, ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish, predmet tasavvurlarini shakllantirish uchun ularning sezgilarini o`ta mukammal darajada rivojlantirish kerak. Ko`zi ojiz insonning tanasidagi har qanday sezgi uning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy hayotiy kuzatishlarimiz hamda ilmiy izlanishlarimiz natijasida ushbu narsaga guvoh bo`ldikki, yo`qolgan ko`rish sezgisining o`rniga teri tuyish, hid bilish, eshitish kabi sezgilar hayot taqozosi ta`sirida bevosita rivojlanar ekan. Albatta, mazkur retseptorlarni malakali tiflopedagoglar ko`zi ojiz bola hayot davomida o`rganishi lozim bo`lgan jarayonlarga yo`naltiradi va rivojlantiradi. Oddiy tilda gapiradigan bo`lsak, sezgilar bizni borliq bilan bog'lab turuvchi vosita, ko`prikdir. Ko`rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgilar, yuz-peshana sezgilar va boshqalar bizning sezgi bilimlarimizga asos bo`la oladi. Sezgi bilimlarimizning tarkibi, tuzilishi insonning sensor tizimini tashkil etadi. Shunday qilib, sezgi tevarak-atrofdagi moddiy dunyoni bilishning birinchi bosqichidir, sezgida hissiy ton ham, faol iroda momenti ham bor, sezgining murakkab nerv-fiziologik asosi ham bor. Sezgilar xilma-xil bo`ladi. Turli-tuman sezgini qaysi sezgi organlari yordami bilan hosil qilsak, ularni o'sha organlarga qarab odatda, quyidagi turlarga, ya'ni ko`rish sezgilari, eshitish sezgilari, hid bilish sezgilari, ta'm (maza) bilish sezgilari, teri sezgilari, muskul-harakat sezgilari va organik sezgilarga ajratiladi. Ko`rish nuqsoni oqibatida asosan taktil va kinestetik analizatorlar faoliyatini faollashar ekan. Total ko`zi ojizlarda haqiqattan shunday holat kuzatiladi. Bu haqida ikkilanish kerak emas. Ko`zi ojizlarda eshitish me'yorda taraqqiy etadi. Bu narsa ko`rish qobiliyati buzilgan shaxslarning to`laqonli bilim olishlari va olgan bilimlarini amalda qo'llay olish imkonini beradi. Me'yorda ko`rvuchi shaxslarda narsa va atrof-muhitidagi holatlar ko`rish orqali idrok etilsa, ko`zi ojizlarda esa, teri sezgilari asosiy rol o`ynaydi. Shuning oqibatida ko`rish nuqsoni bor shaxslarda tana a'zolarining, ayniqsa, inson bilish faoliyatida, xususan mehnat jarayonida tutgan, egallagan o'rni keskin oshadi. Buning oqibatida sensibilizatsiya - taktil sezgilarining ortishi kuzatiladi. Taktil sezgilar ko`zi ojizlarning barcha a'zo terilarida yuz bermasdan, balki ayrim qismlaridagina yuz beradi. Ayniqsa, qo`l kaft qismida bu holat sezilarli darajada bo`ladi. Tadqiqotlarning isbotlashicha, ko`zi ojiz bolalar barmoqlaridagi sezgilar ko`rishi sog`lom tengdoshlarining barmoq sezgilaridan ancha ustun ekan. Bunday o'sish ko`zi ojiz shaxslarning o'qish tizimi - Brail yozuvi bilan bevosita bog'liqdir. Bunda asosiy rolni o'ng qo`ldagi ko`rsatkich barmoq egallaydi.

Demak, ko`rishi da nuqsoni bo`lgan bolalarning savodga o`rgatish va mustaqil hayotga tayyorlash uchun birinchi navbatda ularning sezgilarini oshirish hamda kichik va katta fazoda mo`ljal olishlarini rivojlantirishimiz shart ekan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.M.Dangalov. Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati. Toshkent-2010.
2. S.M.Dangalov. Sohada isloh zarur. Bir safda jurnali. 1-son. Toshkent-2017.
3. N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya ( Tiflopsixologiya). Toshkent-2017.
4. F.U.Qodirova, Z.X.Xusnuddinova. Tiflopedagogikaning umumiy masalalari.

Toshkent-2023.